

TIQXMMI Buxoro filiali o'qituvchisi Xoliqova Manzura Buxoro viloyat hokimi tomonidan e'tirof etildi

Buxoro shahridagi "Rudizar" tantanalar saroyida 1-oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram dasturi bo'lib o'tdi. Bayram munosabati bilan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh o'qituvchi va murabbiylarga viloyat hokimligining tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.



TIQXMMI Buxoro filiali o'qituvchisi Xoliqova Manzura ham Buxoro viloyat hokimi Botir Zaripov tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alarini qabul qilib oldi. M. Xoliqovanning keyingi ilmiy faoliyatlariga omad yor bo'lsin!



TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati